

**Abidov Hamid Xotamovich**

*Buxoro viloyati Vobkent tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi oliy toifali  
texnologiya fani o‘qituvchisi.*

O‘zbekiston xalq amaliy san’ati turlari orasida ganch o‘ymakorligi o‘zining nafisligi, jozibasi va asrlar o‘tsa-da o‘z qiymatini yo‘qotmasligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, qadimiy va navqiron Buxoro me’morchiligida ganch san’atining o‘rni beqiyos. Bugungi kunda ushbu qadimiy hunarni yosh avlodga o‘rgatish, ularning qalbida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat uyg‘otish biz, pedagoglarning muhim vazifamizdir.

Ganch o‘ymakorligi-bu shunchaki bezak emas, balki arxitektura va tasviriy san’atning uyg‘unlashgan namunasi hisoblanadi. Ganchning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u boshqa qurilish materiallaridan farqli olaraq, juda tez qotadi va uzoq vaqt davomida o‘zining oppoq, nafis ko‘rinishini saqlab qoladi. Shu sababli ham, bobolarimiz bu materialni "oq oltin"ga qiyoslashgan.

Vobkent tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘tkazilayotgan Texnologiya darslarida biz o‘quvchilarga ganch o‘ymakorligining nazariy asoslari bilan birga, uning amaliy sirlarini ham o‘rgatib kelmoqdamiz. Ganch bilan ishlash o‘quvchidan nafaqat ijodiy mahoratni, balki cheksiz sabr-toqat, aniqlik va diqqatni talab qiladi. Birgina naqshning chizilishi, andoza olinishi va so‘ngra maxsus pichoqlar (asboblar) yordamida o‘yilishi bolaning mayda motorikasini rivojlantirib, unda muhandislik va dizaynerlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ganch o‘ymakorligida qo‘llaniladigan "islamiy" va "girihi" naqshlari zamirida katta falsafiy ma’no yotadi. Biz dars jarayonida o‘quvchilarga ushbu naqshlarning tarixi, ularning ma’no-mazmuni haqida so‘zlab beramiz. Maqsadimiz-yoshlarimiz nafaqat qo‘li gul usta, balki o‘z milliy merosini chuqur anglaydigan ma’rifatli inson bo‘lib yetishishidir.

Hozirda maktabimizda tashkil etilgan to‘garaklarda o‘quvchilar ganchdan turli dekorativ buyumlar, kichik hajmdagi panno va naqsh namunalarini tayyorlamoqdalar. Bu esa ularni kelajakda arxitektura, qurilish va restavratsiya kabi nufuzli sohalarda o‘z o‘rinlarini topishlariga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ganch o‘ymakorligi kabi milliy hunarlarimizni maktab partasidanoq o‘rgatish - bu o‘zligimizni asrab qolish demakdir. Zero, hunar o‘rgangan yoshlar - elning tayanchi, millatning ko‘rkidir.

20-Aprel, 2026-yil

